

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MIQDORLARNI O'RGATISH  
USULLARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi*

*1-kurs magistrantı Suyunova Diyora Husniddin qizi*

*Ilmiy rahbar- fizika-matematika fanlari bo'yicha fan doktori(DSc)-*

*Yalg'ashev B.F*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada miqdor tushunchasini o'quvchilarga o'rgatishning samarali usullari va metodlari yoritilgan. Maqolada o'yinlar, interaktiv mashqlar, guruhiy ishlar va texnologiyalar yordamida miqdorlarni o'rgatish yo'llari keng yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarining yoshiga mos metodlarni qo'llash va nazariya bilan amaliyotning muvozanatiga erishish muhimligi ta'kidlangan. Amaliy tajribalar va nazariy bilimlar uyg'unligi orqali samarador ta'limga erishish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *miqdor, miqdor tushunchasi, ta'lif metodlari, interaktiv mashqlar, guruhiy ishlar, texnologiyalar, yosh xususiyatlari, ijodkorlik.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются эффективные методы и приемы обучения студентов понятию количества. В статье подробно рассматриваются способы обучения количествам с использованием игр, интерактивных упражнений, групповой работы и технологий. Также была подчеркнута важность использования методов, соответствующих возрасту учащихся, и достижения баланса между теорией и практикой. Показаны возможности достижения эффективного образования посредством сочетания практического опыта и теоретических знаний.

**Ключевые слова:** *количество, понятие количества, методы обучения, интерактивные упражнения, групповая работа, технологии, возрастные особенности, креативность.*

**Annotation:** *This article discusses effective methods and techniques for teaching students the concept of quantity. The article extensively discusses ways to teach quantities using games, interactive exercises, group work, and technology. It also emphasizes the importance of using methods appropriate to the age of students and achieving a balance between theory and practice. It shows the possibilities of achieving effective education through the combination of practical experience and theoretical knowledge.*

**Keywords:** *quantity, concept of quantity, teaching methods, interactive exercises, group work, technologies, age characteristics, creativity.*

Miqdor tushunchasi matematikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, uni o'zlashtirish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Miqdorlarni to'g'ri tushunish bolalarning matematik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois, miqdorlarni o'rgatish usullari o'qituvchilarning ijodkorligi va pedagogik mahoratini talab etadi. Bugungi kunda miqdor tushunchasini o'rgatishda faqat nazariy bilim berish yetarli emas, balki bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv usullarni qo'llash zarur. Bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni tanlash orqali ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu sababli, maqolada miqdorlarni o'rgatishda o'yinlar, guruhiy mashg'ulotlar va texnologiyalardan foydalanish masalalari atroflicha yoritiladi.

Miqdorlarni o'rgatishda o'yin va interaktiv metodlar

Ta'lim jarayonida o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish bolalarning faoliyatini oshiradi. O'yin orqali bolalar mavzuni osonroq o'zlashtiradi, chunki o'yinlar orqali ta'lim olish jarayoni qiziqarli bo'ladi. Masalan, «Sanash va taqqoslash» o'yini orqali o'quvchilar sonlarni o'rganish bilan birga, miqdorlarni bir-biri bilan taqqoslash ko'nikmasini ham o'zlashtiradilar.[1-35]

Interaktiv metodlar esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash va jamoaviy ishslash ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, «Guruhsda ishslash» metodi yordamida o'quvchilar miqdorlarni aniqlashda bir-biri bilan fikr almashadilar va hamkorlikda ishslash orqali bilimlarini mustahkamlaydilar.[2-23] O'yin va interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ta'lif jarayonida faol ishtirok etishi ta'minlanadi.

Amaliy mashqlar va guruhiy ishlar

Amaliy mashqlar o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Misol uchun, bolalarga turli buyumlarni sanash va guruhlash vazifasini berish orqali miqdor tushunchasini o'rgatish samarali hisoblanadi. Amaliy topshiriqlar o'quvchilarda mavzuga bo'lgan qiziqishni oshiradi va ularning mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.[3-41]

Guruhiy ishlar o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Guruhsda ishslash jarayonida o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar, bu esa ta'lif samaradorligini oshiradi. Guruhiy ishlarda har bir bola o'z fikrini bildirishi va guruh ishiga hissa qo'shishi muhim.

O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni tanlash o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Kichik yoshdagи bolalar uchun ko'rgazmali qurollar va rang-barang illyustratsiyalardan foydalanish maqsadga

muvofig. Katta yoshdagi o‘quvchilar uchun esa murakkabroq mantiqiy topshiriqlar va amaliy mashqlar samarali hisoblanadi.[4-14]

Texnologiyalardan foydalanish

Bugungi kunda raqamli vositalar yordamida ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Maxsus mobil ilovalar va interaktiv ta’lim platformalari o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkoniyatini beradi. Shuningdek, audiovizual vositalar yordamida mavzuni o‘zlashtirish jarayoni sezilarli darajada yengillashadi.[5-31]

Yuqorida aytib o‘tilgan metodlarni samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning nafaqat miqdor tushunchasini chuqur o‘zlashtirishiga, balki ularning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishga erishish mumkin

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G‘anieva, N. R. "Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi". Toshkent: O‘zbekiston milliy nashriyoti, 2019.
2. Vygotskiy, L. S. "Pedagogik psixologiya". Moskva: Prosveshchenie, 1991.
3. Jahongirov, A. A. "Didaktika asoslari". Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Davlatov, S. "Matematik ta’limda innovatsion usullar". Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Piaget, J. "Bolalar fikrlashini o‘rganish". Parij: Flammarion, 1963.